



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA
ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining kurort-rekreatsiya zonalari dam olish
muassasalarini loyihalashtirish, qurish va obodonlashtirishning sanitariya
qoidalari va normalari**

**O‘zbekiston Respublikasi
0198-06 sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2006

Ushbu gigiyenik normativlar, sanitariya qoidalar va normalari mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar va ayrim shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Ushbu tavsiyalardan sanitariya vrachlari yirik va eng yirik shaharlarning shahar atrofi zonalarida shahar tashqarisidagi qisqa muddatli va uzoq muddatli dam olish joylari va muassasalarini loyihalashtirish, qurish va obodonlashtirish ustidan ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini amalga oshirishda, shuningdek, boshqa mutaxassislar shaharlarning bosh rejalari loyihalarini (xususan, shahar tashqarisidagi dam olishni tashkil etish) va kurort-rekreatsiya zonasi joylari va muassasalarini batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishda foydalanishlari mumkin.

1-bob. Rekreatsiya muhiti gigiyenasining umumiy masalalari

1.1. Inson salomatligiga ta'sir ko'rsatishning gigiyenik xususiyatlariga ko'ra uni o'rab turgan muhit quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: ishlab chiqarish, seliteb va rekreatsion muhitlar. Agar dastlabki ikki muhitda inson faoliyati va uning natijalari, shuningdek, uning sun'iy elementlarining ahamiyati ustunlik qilsa, rekreatsion muhitda odamlar salomatligiga asosiy ta'sirni o'sha joyning tabiiy-iqlim sharoitlari va katta hududlarning atrofidagi sanitariya holati ko'rsatadi.

1.2. Rekreatsion muhitning sanitariya-gigiyena tadqiqotlari ishlab chiqarish va aholi yashash muhitini o'rganishdan farqli o'laroq, katta fazoviy ko'lamga, hisobga olinadigan elementlarning ko'p omilliligiga ega bo'lib, insonning dam olishi, ruhiy va jismoniy salomatligini tiklash va yangilash uchun eng maqbul imkoniyatlarni beradigan muhitning asosiy xususiyatlari va aloqalarini aniqlash uchun katta hududlarni yil fasllari bo'yicha tavsiflashni va boshqalarni talab qiladi.

1.3. Bir tuman yoki mintaqada bir xil profildagi kurort-rekreatsiya majmuasi uchun hudud tanlash va ajratishda joylashtirishning bir nechta variantlarini ishlab chiqish va ulardagi sanitariya holatini hisobga olgan holda balli tizim bo'yicha gigiyenik baho berish lozim. Hududning 55% va undan ortig'ini tabiiy o'rmon landshaftlari, kichik qismini antropogen elementlar egallagan va atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar mavjud bo'lmagan zonalarini ustuvor deb hisoblash lozim.

1.4. Shuningdek, kurort-rekreatsiya hududlari va dam olish zonalarining alohida majmualarini mahalliyashtirishda ushbu hududning potensial ijobiy shart-sharoitlari rekreatsiya muhitini optimallashtirish bo'yicha antropogen-rekonstruksiya va muhandislik-texnik tadbirlar bilan to'ldirilishi muhim gigiyenik ahamiyatga ega.

1.5. Gigiyenik tadqiqotlar va sanitariya nazorati kurort-rekreatsiya tizimlarining mavjud farqlanishiga va ularning yilning turli fasllaridagi faoliyatiga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

1.5.1. Kurort-rekreatsiya tizimlari hududining 4 ta asosiy turi ajratiladi: 1 - davolash, 2 - sog'lomlashtirish, 3 - sport, 4 - bilim olish. Birinchi turi asosan surunkali kasalliklarning rivojlanishini oldini olish, patologik jarayonlarning faolligini bostirish, ikkinchi va uchinchi turlari esa salomatlikni mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan. To'rtinchi turdagi hududiy-rekreatsion tizimlar salomatlikka umumiy mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, odamlarning madaniyati va ma'naviy boyligini yuksaltirishga ko'maklashishi lozim.

1.5.2. Vaqt mezonlariga ko'ra, rekreatsiyaning 4 ta funksional turi farqlanadi: 1 - yil davomida foydalanish, 2 - mavsumiy foydalanish, 3 - tabiiy dam olish, 4 - qisqa muddatli dam olish.

1.6. Aholining har xil turdagi rekreatsiyaga (kurortlar, sanatoriylar, pansionatlar, uzoq va qisqa muddatli dam olish uylari va joylari, turistik bazalar, marshrutlar va boshqalar) bo'lgan uzluksiz talabi tufayli o'zlashtirilmagan tog'-vodiy rayonlarida, kam mahsuldor, qayir yerlarda, to'qaylarda, tekislik zonalaridagi daryolar va ko'llar qirg'oqlarida kurort-rekreatsiya komplekslarini o'zlashtirish va joylashtirish zarur. Bunda kurort-rekreatsiya hududlarini joylashtirish va rivojlantirishni gigiyenik asoslash kompleks tarzda, rekreatsiya muhiti va aholi salomatligini muhofaza qilish muammosini hal etishga tizimli yondashuvni qo'llagan holda amalga oshirilishi lozim.

1.7. Respublika viloyatlari va mintaqalarini istiqbolli rivojlantirish loyihalarida (rejalashtirish tumanlari sxemalari, hududiy joylashtirish sxemalari va boshqalar) "rekreatsion muhit - inson" munosabatlarini tizimli tahlil qilishda inson salomatligi tizimni shakllantiruvchi omil hisoblanadi, ya'ni kurort-rekreatsion tumanlarni joylashtirish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda aholi salomatligini muhofaza qilish masalalari ustuvor hisoblanadi, bu esa rekreatsion muhitda maqbul tabiiy va ijtimoiy-gigiyenik sharoitlarni yaratish orqali hal etiladi.

1.8. Shahar tashqarisidagi yangi dam olish joylari va muassasalarini tashkil etish va mavjudlarini rivojlantirish shaharning bosh rejasi va shahar atrofi zonasi loyihasiga muvofiq ularning batafsil rejalashtirish loyihalari asosida amalga oshirilishi kerak. Shahar va uning yaqin atrofidagi hududlarning rivojlanish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi sababli, shaharning bosh rejasi va shahar atrofi zonasi loyihasini bir vaqtning o'zida ishlab chiqish zarur.

1.9. Rekreatsiya tizimi loyihasini tahlil qilishda quyidagilarga asoslanish lozim:

shahar tashqarisidagi dam olishni dam olish va bayram kunlaridagi qisqa muddatli (yoki haftalik) dam olishga hamda ta'til va ta'til davridagi uzoq muddatli (yoki yillik) dam olishga differensiatsiyalash;

shahardan tashqaridagi dam olish joylari va muassasalarini joylashtirish uchun hududni tanlash mikroiqlim, landshaft, sanitariya-gigiyena tavsifi,

kurortologiya resurslari va shahar atrofi zonasining sanitariya holati prognozini hisobga olgan holda tabiiy omillarni kompleks baholash asosida amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar dam olish uchun ajratilgan hududlarning profil maqsadini aniqlash bilan shahar atrofi zonasini funksional zonalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

1.10. Shahar atrofi zonasini baholashda ommaviy dam olish obyektlari joylashgan joylarda tabiiy muhitni muhofaza qilish va boyitish tadbirlariga, shu jumladan landshaft-o'simlik sharoitlarini yaxshilashga, shahar atrofi zonasi hududida yashil o'simliklarni oqilona joylashtirishga, o'rmon-o'tloq bog'larini yaratishga, buzilgan uchastkalarni qayta tiklashga, yangi suv havzalarini barpo etish va mavjudlarini sog'lomlashtirishga, atmosfera havosini sanitariya jihatidan muhofaza qilish chora-tadbirlariga va talab etilgan akustik rejimni yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.

1.11. Shahar tashqarisidagi qisqa muddatli ommaviy dam olish joylarining yagona transport tizimi rekreatsion hududlarning shaharning asosiy aholi punktlari bilan eng qisqa va tez bog'lanishini ta'minlaydigan transport xizmatini rivojlantirishni, minimal o'tish bilan avtomobil va temir yo'llar tarmog'ini yanada rivojlantirishni nazarda tutishi kerak.

2-bob. Mavjud va loyihalarda tavsiya etilgan rekreatsiya zonalarini gigiyenik baholash

2.1. Hozirgi vaqtda respublikaning tekislik hududlarida joylashgan aholining ommaviy dam olish zonalarini va pioner lagerlari yetarli darajada gigiyenik asoslanmagan va yaxshi obodonlashtirilmagan holda joylashtirilgan, shu sababli ko'p hollarda rekreatsion muhitning sifati aholining salomatligini mustahkamlash va to'laqonli dam olishiga yetarli darajada hissa qo'shmayapti.

2.2. Kelgusida rekreatsion muhitni optimallashtirish maqsadida gigiyenistlar va sanitariya organlari joylarda rekreatsion tumanlar va aholining ommaviy dam olish zonalarini joylashtirish hamda rivojlantirishni ilmiy asoslab berishlari, tegishli yo'riqnomalarga va boshqalarga amal qilishlari lozim.

2.3. Tumanni rejalashtirish sxemalarini ishlab chiqishda mavjud sanitariya holati va rekreatsion tumanlarni istiqbolli rivojlantirish hamda aholining ommaviy dam olish obyektlarini joylashtirish bo'yicha tavsiyalarining gigiyenik asoslanishi (tumanni rejalashtirish sxemalari va loyihalari, qishloqlarning bosh rejalari, yerdan foydalanish, joylashtirishning mintaqaviy sxemalari va boshqalar) bo'lishi zarur.

3-bob. Shahar atrofi zonasida dam olish maskanlarini arxitektura-rejaviy tashkil etish va joylashtirishning gigiyenik masalalari

3.1. Sanatoriy davolash, dam olish va turizm muassasalari tarmog'ini loyihalash va shaharsozlik jihatidan tashkil etishda asosiy rejalashtirish birligi rekreatsiya tumani - geografik, tabiiy-iqlim sharoitlari va shaharsozlik yechimlarining umumiyligiga asoslangan nisbatan mustaqil rejalashtirish-shaharsozlik tuzilmasi hisoblanadi.

3.2. Rekreatsion hududlarni rivojlantirish, ularning tashkil etilish muddatlaridan qat'iy nazar, tabiiy resurslardan to'liq va oqilona foydalanishni nazarda tutish lozim. Tumanni rejalashtirish sxemalari va loyihalarini ishlab chiqishda kamida 5 yil muddatga qabul qilinadigan birinchi navbatda o'zlashtiriladigan zonalar va 25-30 yil muddatga istiqbolli rivojlanish hududlarini ajratish zarur.

3.3. Rekreatsiya zonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tadbirlari nazarda tutiladi, shu jumladan, rekreatsiya xizmati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarishlar va qishloq xo'jaligi obyektlarini qurish va kengaytirish taqiqlanadi. Rekreatsiya muhitini ifloslantiruvchi va odamlar organizmiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi manbalar, shuningdek rekreatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi xo'jalik faoliyati turlari bo'lgan korxonalar rejali ravishda rekreatsiya hududlaridan tashqariga chiqariladi.

3.4. Tuman chegaralariga sof rekreatsiya yerlaridan tashqari aholi punktlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi yerlari, buyurtma qo'riqxonalar, qo'riqlanadigan landshaftlar, suv havzalari, transport va muhandislik kommunikatsiyalari liniyalari kiradi. Rekreatsion tumanlar hududning rekreatsion resurslariga mos keladigan davolash va dam olishning ma'lum turlari va turlariga ixtisoslashgan muassasalar majmualaridan iborat yirik hududlarga bo'linadi.

3.5. Aholining shahar tashqarisidagi ommaviy dam olishi asosan qulay tabiiy hududlarda tashkil etilishi kerak, ularning asosiy jozibador omillari tabiiy va sun'iy yashil maydonlar (o'rmonlar, daraxtzorlar, o'rmon-bog'lar, istirohat bog'lari), tabiiy va sun'iy suv havzalari (ko'llar, daryolar, kanallar, suv omborlari), tog' massivlari, vodiylar va boshqalar hisoblanadi.

3.6. O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy-iqlim va landshaft sharoitlari, xususan, issiq, quruq yoz, kuchli quyosh radiatsiyasi, o'rmon massivlarining yo'qligi yer usti suv havzalari va tog' massivlarining tortishish omillarining ahamiyatini oshiradi. Tekislik hududlarda daryolar, kanallar, ko'llar, suv omborlari qirg'oqlari, tog'li hududlarda esa o'rta tog' vodiylari, tog'oldi hududlarga tutashgan vodiylar va tog'

suv omborlari, xususan, Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsion zonasining qirg'oqlari shunday hududlar hisoblanadi.

3.7. Hududlarni sanitariya-gigiyena jihatidan baholashning asosiy vazifasi turli xil davolanish, dam olish va turizmni tashkil etish uchun qulay bo'lgan hududlarni aniqlash, tumanni rejalashtirish sxemalari va loyihalarida belgilangan rekreatsion hududlar chegaralarini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini aniqlashtirishdan iborat.

3.8. Shahar tashqarisidagi dam olish joylari va muassasalari eng qulay tabiiy-iqlim, sanitariya-gigiyena va boshqa sharoitlarga ega bo'lgan, transport magistrallari va boshqa shovqin manbalaridan ajratilgan shahar atrofi zonasi hududlarida joylashtirilishi kerak. Dam olish maskanlarida kurort markazlari va turar-joy shaharchalari markazlarini tashkil etish zarur.

3.9. Shahar tashqarisidagi dam olishni rejaviy tashkil etishning asosiga shahar atrofi zonasi hududlarini aniq funksional zonalashtirish tamoyili qo'yilishi va unda turli xil turdagi dam olish zonalari (qisqa muddatli, uzoq muddatli dam olish zonalari, bolalar zonalari, turizm va boshqalar) ajratilishi lozim.

3.10. Qisqa muddatli dam olish joylari va muassasalarining aholi punktlarining turar-joy binolari chegaralaridan, shuningdek, uzoq muddatli dam olish uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish muassasalaridan uzoqligi kamida 500 metr bo'lishi kerak.

3.11. Shahar tashqarisida qisqa muddatli dam olishni tashkil etish uchun shahar markaziga eng yaqin, transport qatnovi uzog'i bilan 1-1,5 soatlik masofada joylashgan hududlarni ajratish lozim.

3.12. Shahar tashqarisidagi dam olish joylari va muassasalarining joylashuvi, dam oluvchilarning to'planishiga yo'l qo'ymaslik va harakatlanish qulayligini ta'minlash uchun, shaharning aholi yashaydigan hududlariga intilishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

3.13. Kurort-rekreatsiya zonasida dam olishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lmagan qurilishlarni, shu jumladan uzoq muddatli dam olish va bolalar dam olish muassasalarini (UDM) qurishni taqiqlovchi qat'iy shaharsozlik intizomiga rioya qilish zarur.

3.14. Transport imkoniyatlari cheklanmagan uzoq muddatli dam olish maskanlari shahar atrofi zonasining tashqi belbog'ida joylashtirilishi kerak.

3.15. Shovqin va atmosfera havosini chiqindi gazlar bilan ifloslantirish manbai bo'lgan avtoturizm obyektlari boshqa sog'lomlashtirish muassasalaridan ajratilgan bo'lishi kerak. Avtoturizmning ommaviy rivojlanishi tufayli, harakat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, avtomobil yo'llarini dam olish hududlarining elementlari sifatida ko'rib chiqish va yo'nalishni belgilashda ularning landshaft-dekorativ yechimiga katta e'tibor qaratish lozim.

4-bob. Umumiy rekreatsion ehtiyojni hisoblash

4.1. Shahar tashqarisidagi rekreatsion ehtiyojni ta'minlashni hisoblash va baholash nafaqat shahar-markaz, balki shahar atrofi hududlari aholisining mavjud va istiqboldagi sonidan kelib chiqqan holda qisqa muddatli va uzoq muddatli dam olish uchun alohida amalga oshirilishi lozim.

4.2. Aholining shahar tashqarisidagi dam olish tizimini ishlab chiqish va baholashda yozgi yakshanba kunlari shahar atrofidagi rekreatsion hududlarni katta yoshli aholining (40-60 foizi (16 yosh va undan katta), shu jumladan jamoa bog'dorchiligida band bo'lganlar va bolalar aholisining 50 foizi uchun hisoblab chiqish zarur.

Aholi tashrifining yuqori chegarasi yuqori dam olish salohiyatiga ega bo'lgan sanoat markazlari va aholining yosh tarkibiga ega bo'lgan shaharlarga tegishlidir.

5-bob. Sog'lomlashtirish muassasalari tizimi

5.1. Qisqa muddatli dam olish muassasalariga quyidagilar kiradi: 1-2 kunlik dam olish uylari, dam olish kunlari sayyohlik bazalari, pansionatlar, mehmonxonalar, kempinglar, sport-yoshlar oromgohlari, suzuvchi dam olish bazalari, baliq ovlash, ov qilish, chang'i uchish bazalari.

5.2. Sog'lomlashtirish muassasalarining tarkibi va sig'imini aniqlashda shahar tashqarisida dam olishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olish zarur - turizmning, shu jumladan avtoturizmning ahamiyati ortib borayotgani va 1-2 kunlik dam olish uylari, pansionatlar, shahar tashqarisidagi mehmonxonalar, dam olish kunlari turbazalari, kempinglar va sport-yoshlar lagerlari kabi obyektlarni qurishning ustuvorligini belgilovchi dam olishning oilaviy xususiyati (1-jadval).

5.3. Shahar tashqarisidagi dam olish muassasalarining sig'imini hisoblash shahar tashqarisida dam oluvchilarning kamida 40-70 foizini qamrab olish zarurligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Yuqori chegara tabiiy-iqlim sharoiti noqulay zonadagi shaharlar uchun, quyi chegara esa qulay zonadagi shaharlar uchun belgilanadi (2-jadval)

5.4. Rekreatsiya hududlariga tashrif buyuruvchilarni ko'paytirish va aholining barcha guruhlari, birinchi navbatda, keksa va qariyalarning tabiiy muhitda bo'lish muddatini uzaytirish maqsadida asosan yil davomida faoliyat ko'rsatadigan sog'lomlashtirish obyektlari qurilishini nazarda tutish tavsiya etiladi, ularning soni ularning umumiy hajmining kamida 50 - 60 foizini tashkil etishi kerak.

5.5. Bolalarning dam olishini tashkil etishga katta e'tibor qaratish lozim, chunki ular barcha dam oluvchilarning taxminan 20 foizini tashkil etadi. Bolalarning qisqa muddatli dam olishi bolalar bilan keladigan dam oluvchilar ommaviy

to'planadigan joylarga joylashtiriladigan ixtisoslashtirilgan bolalar bog'lari yoki selektorlar shaklida tashkil etiladi.

1-jadval

Aholining shahar tashqarisidagi ommaviy dam olish hududlari maydonining taxminiy me'yorlari

Rekreatsion hududlar zonolari	GSMning bir nafar aholisiga to'g'ri keladigan maydon me' yorlari (m ²)	Turli dam olish zonalarida bir dam oluvchiga to'g'ri keladigan maydon me' yorlari (m ²)	Dam olish maskani turi	1 o'ringa to'g'ri keladigan yer uchastkasi me' yorlari (m ²)
Uzoq muddatli dam olish zonolari va markazlari	<u>0,8 - 1</u> 0,2 - 0,3	<u>200 - 400</u> 150 - 300	Sanatoriyalar Dam olish uylari, pansionatlar Pioner lagerlari Shahar tashqarisidagi bolalar dala hovlilari Turistik bazalar	150 - 200 110 - 130 135 - 200 100 - 120 60 - 75
Qisqa dam olish zonolari va markazlari	<u>10 - 12</u> 2 - 3	<u>100 - 150</u> 50 - 100	Qisqa muddatli dam olish bazalari Treyler parklari Kemping	100 - 110 100 - 110 135 - 150
O'rmon parklari O'tloqzorlar Gidroparklar	<u>1 - 6</u> 1 - 9	<u>800 - 1000</u> 600 - 800	Ovchilik bazalari Baliq ovlash bazalari	25 - 100 50 - 100

Izohlar: suratda tog' va tog'oldi hududlari uchun, maxrajda esa suv havzalari yaqinidagi tekislik hududlari uchun me'yorlar keltirilgan.

5.6. 1-2 kunlik dam olish uylari, pansionatlar (mehmonxonalar), motellar faqat yil bo'yi faoliyat ko'rsatishga, baliq ovlash va ovchilik bazalari ham asosan yil bo'yi faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mavsumiy muassasalarga chodirli oromgohlar (kempinglar), yozgi dam olish shaharchalari, qisman dam olish kunlari turbazalari, sport-yoshlar oromgohlari kiradi.

5.7. Zarur sog'lomlashtirish muassasalarining tarkibi va sonini aniqlash aholining har biriga bo'lgan tabaqalashtirilgan ehtiyojlari asosida, joyning tabiiy-iqlim sharoitlari, kattaligi, shaharning xalq xo'jaligi yo'nalishi, dam olishning

ijtimoiy-demografik tarkibi va boshqa mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim (3,4-jadval).

2-jadval

Hududlardan rekreatsion foydalanishning har xil turlarida ruxsat etilgan yuklamaning taxminiy ko'rsatkichlari

Foydalaniladigan hudud turlari	Mashg‘ ulot turlari	Rekreatsion yuklamalar			Umumiy sig‘imni aniqlash uchun tavsiya etilgan yuklamalar (kishi/ga)	Eslatma
		ekologik	texnologik	psixologik		
Tog‘li hududlar						
So‘qmoq tarmog‘i	Sayrlar	5 - 10	-	0,5 - 1	5.	Yo‘llar ichida cheklanmagan
Tik yonbag‘irli vodiy - turistik yo‘lak	Sayohat turizmi	1 - 2	-	0,5 - 1	2.	Yoki bitta guruh 800 m. yo‘lda
Chodirlar o‘rnatish zonasidagi yalanglik	Turizm	-	300.	20 - 30	100.	
Chang‘i uchish uchun tog‘ yonbag‘irlari	Chang‘i sporti	-	2 - 20	-	20.	normativ talablar
Tog‘ daryolari va soylarining qirg‘oqlari	Cho‘milish, dam olish	5 - 7	-	2 - 5	5.	Bir hammomga - to‘g‘on
Tog‘ suv omborlari qirg‘oqlari	Cho‘milish, dam olish	-	1000	100 - 500	500	
Tekislik rayonlari						
Suv havzalari qirg‘oq chizig‘i landshaftini o‘zgartirish	Sayrlar	10 - 20	-	2 - 5	10.	Obodonlashtirish ga qarab oshadi

Tabiiy plyajlar	Cho‘milish, dam olish	-	1000-1500	100 - 200	11.00	Maksimal obodonlashtirishni hisobga olgan holda
Sun'iy plyajlar	Cho‘milish, dam olish	-	2000-2500	150 - 500	15.00	
Kanallar va suv omborlaridagi sun'iy akvatoriya	Cho‘milish	-	600 - 800	150 - 500	500	Asosiy suv havzasidan damba, to‘g‘on, oqim kanali bilan ajratilgan akvatoriya
Suv havzasi akvatoriyasi	Musobaqalar	-	1 - 5	0,5 - 1	5.	Suv sporti turiga qarab
Daryo va ko‘llar qirg‘oqlaridagi ov qilinadigan yerlar	Ov qilish	-	1 - 2	-	2.	Xavfsizlik shartlarini hisobga olgan holda
Baliq ovlanadigan joylar	baliqchilik	-	10 - 20	-	15.	Qirg‘oqdan tutishda 50 - 100 kishi/km ²

3-jadval

O‘zbekiston shaharlari aholisining shahar tashqarisidagi qisqa muddatli dam olish muassasalarining har xil turlariga bo‘lgan ehtiyojining taxminiy ko‘rsatkichlari (so‘rovda qatnashganlarning umumiy sonidan % hisobida)

Muassasa turlari	Hisoblangan ko‘rsatkichlar % da	Eslatma
1-2 kunlik dam olish uylari	14	keksa va qariyalar salmog‘i nisbatan yuqori bo‘lgan shahar uchun yuqori chegara (50 va undan yuqori)
dam olish kuni turbazasi	8,5	aholining yosh tarkibi bilan (16 yoshdan 39 yoshgacha bo‘lgan shaxslar ustunlik qiladi)
motel, kemping	3	avtomobillashtirish darajasi nisbatan yuqori

baliqchilik bazasi	5,5	"ishchilar" ijtimoiy guruhining ulushi yuqori bo'lgan sanoat shaharlari va suvda dam olishni rivojlantirishga yordam beradigan tabiiy sharoitlar bilan
ovchilik bazasi	2	ularning rivojlanishi va dam olishning ommalashishiga yordam beradigan tabiiy sharoitlar bilan
chang'i bazalari	19	chang'i sportining rivojlanishi va ommalashishiga yordam beradigan tabiiy-iqlim sharoitlari va aholining yosh tarkibi bilan

4-jadval

O'zbekiston shaharlari aholisining uzoq muddatli dam olishning har xil turlariga bo'lgan ehtiyojining taxminiy ko'rsatkichlari (so'rovda qatnashganlarning umumiy sonidan % hisobida)

Muassasa turlari	Hisoblangan ko'rsatkichlar % da	Eslatma
kurort	10 - 11	kekxa va qariyalar salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan shahar uchun yuqori chegara (50 va undan yuqori)
sanatoriya	10 - 12	
pansionat	4,5 - 10,5	
dam olish uylari	5,5 - 10,0	
bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari	5,5 - 8,0	

5.8. Rekreatsiya obyektlarining me'moriy-rejaviy tuzilishi ularni yagona xizmat ko'rsatish tizimiga ega bo'lgan guruhlar, majmualar, dam olish hududlari, muhandislik jihozlari va transport, kirish yo'llarini obodonlashtirish, transport qulayligini hisobga olish va boshqalarga birlashtirish asosida hal etilishi lozim. Shu bilan birga, alohida guruhlar va majmualarning o'zaro joylashuvi, shuningdek, ularning umuman shaharlarga nisbatan joylashuvi masalalari ham hal etilishi lozim.

6-bob. Sun'iy suv omborlari qirg'oqlarida dam olish joylarini tashkil etish va ularni obodonlashtirish

6.1. O'zbekistonda suv havzasi bo'yida dam olish eng ommalashgan (aholining 80 foizigacha dam olish kunlarini yozda daryolar, suv omborlari va boshqa suv inshootlari qirg'oqlarida o'tkazishni afzal ko'radi). Ushbu faktni hisobga olgan holda, dam olishning ushbu turini kengaytirish, tabiiy va sun'iy suv havzalarini obodonlashtirish lozim.

6.2. IV iqlim mintaqasi sharoitida shahar tashqarisida ham, shahar ichida ham dam olish maskanlarini tashkil etish uchun mavjud suv omborlarining qirg'oqlaridan foydalanish, shuningdek, ularni maxsus rekreatsion maqsadlarda barpo etish lozim.

6.3. Suv omborlaridan cho'milish uchun foydalanishga suv almashinuvi uch-besh marta bo'lganda va chuqurligi kamida 1,5 metr bo'lganda, idishning nishabligi 1/20 bo'lgan tekis tub hosil qiladigan silliq yonbag'irlarida ruxsat etiladi. Sayoz joyning chuqurligi 1 - 2 metr, kengligi 50 - 300 metr (suv ko'zgusining o'lchamiga qarab) bo'lishi kerak. Suv havzasidan to'g'ri foydalanish uchun akvatoriyada cho'milish, suv sporti, baliq ovlash zonalari va suv transporti yo'nalishlarini ajratish zarur.

6.4. Qirg'oqlar ekspozitsiyasining eng qulay sharoitlari janubiy, janubi-sharqiy, janubi-g'arbiy, eng noqulay - sharqiy, g'arbiy, shimoli-sharqiy. Shamolga teskari tomondagi qirg'oq ayniqsa qulay, chunki bunday vaziyatda suv havzasining sovutish ta'siri 2-3 baravar ortadi. Shunday qilib, qirg'oq hududlarida optimal mikroiqlim rejimini yaratish suv ko'zgusining kattaligiga, shuningdek, plyaj uchun to'g'ri joyni tanlashga bog'liq bo'ladi.

6.5. Suvga qulay va xavfsiz yondashuvlar bo'lishi, dam olish zonasida qulay gidrologik rejim (kuchli oqimlar, keskin ko'tarilish va pasayishlarning yo'qligi) bo'lishi kerak.

6.6. Suv havzasi yonidagi dam olish hududi plyaj, xizmat ko'rsatish hududi, sport hududi va cho'milish hududini o'z ichiga oladi. Ham sun'iy, ham tabiiy suv havzalarining (plyajlarning) qirg'oqbo'yi hududlarida bir nechta funksional zonalarini ko'zda tutish lozim: uzunligi 30 - 50 m bo'lgan birinchi zona quyosh vannalari uchun mo'ljallangan, quyoshdan himoyalovchi qurilmalar (soyabonlar, soyabonlar, zamburug'lar) bilan jihozlangan, umumiy maydoni plyajning butun hududidan 40 - 60% bo'lgan, daraxt-buta o'simliklarisiz katta qumli, o'tli va shag'alli ochiq maydonlardan iborat; ikkinchi zona - 30 - 50 m guruhli o'yinlar va dam olish uchun ajratiladi. Ushbu mintaqaning butun hududi funksional jihatdan yashil o'simliklar bilan yarim soyada o'ynash va dam olish uchun kichik maydonchalarga bo'linishi kerak (daraxt shox-shabbalarining zichligi 0,4-0,6); uchinchi zona - ko'kalamzorlashtirilgan yopiq maydonlar (daraxt shox-

shabbalarining zichligi 0,8-0,9) dam olish joylari va sayr qilish yo'llari bilan. Plyaj yo'lagi sezilarli darajada uzun (1 km dan ortiq) bo'lsa, tinch va faol dam olish sektorlarini almashtirish mumkin.

6.7. Xizmat ko'rsatish hududiga kiyinish xonalari, tibbiyot punkti, qutqaruv xizmati, ijara punktlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari (kafe, bufet, oshxonalar), kioskalar, hojatxonalar, umumiy maydoni 5 - 10% bo'lgan plyaj hududi kiradi.

6.8. Sport hududiga umumiy maydoni 10% bo'lgan maydonchalar, qayiq stansiyalari, suvga sakrash minoralari kiradi.

6.9. Sohil hududida kiyim almashtirish kabinalari (75 nafar dam oluvchiga bittadan), dush qurilmalari (75 nafar dam oluvchiga bittadan), hojatxona (75 nafar dam oluvchiga bittadan ochko yoki unitaz), ichimlik favvoralari (100 nafar dam oluvchiga bittadan) jihozlanishi lozim.

6.10. Bolalar bilan oilaviy dam olishga mo'ljallangan sog'lomlashtirish majmualarida plyaj maydonining 30% ini bolalar sektori tashkil etishi kerak. Bolalar plyaji akvatoriyasi asosiy chuqurligi 30-40 sm, lekin 70 sm dan oshmaydigan tekis tubli bo'lishi kerak.

6.11. Zona hududida plyajdan 25 metr uzoqlikda va kundalik chiqindilarni olib ketish uchun qulay kirish yo'llari mavjud bo'lgan betonlangan maydonchaga o'rnatilgan chiqindi qutilari va konteynerlarini ko'zda tutish shart.

6.12. Botqoq, loy va soya joylarda, oqava yoki yomg'ir suvlari hamda suv va tuproqni ifloslantiruvchi boshqa manbalar yaqinida plyaj qurishga ruxsat berilmaydi.

6.13. Yashil o'simliklarning tur tarkibi, mikroiklim rejimi va havo muhitini o'ziga xos ifloslanish turlaridan maksimal darajada optimallashtirishga qodir bo'lgan ko'kalamzorlashtirish turi belgilanadi. Sanoat korxonalari tomonidan magistrallar va shamollarning gazlanganligini kamaytirish I - III sinf gazga chidamli daraxtzorlar polosalari bilan amalga oshirilishi kerak. Shovqin, chang, gazlardan himoyalani uchun eng yaxshi daraxt turlari eman, tol, oq akatsiya, zarang, kumush terak, tut, yong'och, archa, tuya, chinor hisoblanadi. Ignabargli daraxt turlari yoqimsiz hidlarni yo'qotadi. Xuddi shu daraxt turlari antibakterial faollikka va havoni boyitish qobiliyatiga ega.

6.14. Qisqa dam olish zonalarini mahalliy suv ta'minoti tizimlariga ulash maqsadga muvofiqdir. Ba'zi hollarda ularni suv bilan ta'minlash uchun quvurli quduqlar, buloq kaptajlari qo'llaniladi. Bunday hollarda mahalliy suv olish inshootlari suvi sifatini nazorat qilishga OzDSt 950 - 2000 "Ichimlik suvi" tatbiq etilmaydi. Juda bo'lmaganda, bu maqsadlar uchun ATS-4-157, ATS-4, 2-130, AVV-2; ABC-15-63.

6.15. Sogʻlomlashtirish muassasalarining sigʻimiga qarab, kuniga 25 dan 1000 m gacha turli miqdorda oqova suvlar hosil boʻlishi mumkin³. Bunda turli kichik kanalizatsiya tizimlari: drenaj qurilmasiz kichik sugʻorish va filtratsiya maydoni, yer osti sugʻorish maydonlari, turli biofiltrlar (kanalli sugʻorish, yer osti minorali va boshqalar), oqova suvlarni toʻliq oksidlovchi qurilmalar (sirkulyatsion-oksidlovchi kanallar, radial turdagi aerooksidlovchilar yoki oksidlovchi blokklar, kompakt qurilmalar - KU-200, 400, 700, BIO-25, 50, 10 va boshqalar) maqbul hisoblanadi. QMQ 2.04.03-97 "Kanalizatsiya, tashqi tarmoqlar va inshootlar" ga muvofiq oqova suv biologik tozalangandan soʻng zararsizlantiriladi. Toʻliq sunʼiy biologik tozalashdan keyin xlorning hisoblangan dozasi 3 g/m³, toʻliqsiz tozalashdan keyin esa 5 g/m³.

7-bob. Xizmat tizimi

7.1. Shahar tashqarisidagi qisqa muddatli dam olish zonalariga xizmat koʻrsatish tizimi umumiy ovqatlanish obyektlari, jismoniy tarbiya-sport, madaniy-ommaviy inshootlar, qayiq, yelkanli kemalar, velostansiyalar, sport va sayyohlik jihozlarini ijaraga berish punktlari, shuningdek, tibbiy yordam punktini oʻz ichiga olishi kerak.

7.2. Umumiy ovqatlanish obyektlari tarmogʻining sigʻimini 5-jadvalda keltirilgan koʻrsatkichlar asosida aniqlash lozim.

5-jadval

Dam oluvchilarning umumiy ovqatlanish obyektlariga boʻlgan ehtiyojining taxminiy koʻrsatkichlari (har bir guruhdagi dam oluvchilar sonidan % hisobida)

Dam oluvchilar toifasi	Har bir guruhda qamrov foizi
Sogʻlomlashtirish muassasalarida dam oluvchilar:	100
tunab qolish bilan	90
tunash joyisiz	
Uyushmagan dam oluvchilar	70

7.3. Shahar tashqarisidagi qisqa muddatli dam olish joylaridagi asosiy madaniy-ommaviy va jismoniy tarbiya-sport xizmati koʻrsatish inshootlarining sigʻimi 6-jadvalda keltirilgan koʻrsatkichlar asosida aniqlanadi.

Dam olish joylaridagi madaniy-ommaviy va jismoniy tarbiya-sport inshootlari sig'iminining taxminiy ko'rsatkichlari - kurort markazlari (har bir guruhdagi dam oluvchilar sonidan % hisobida)

Xizmat turlari	Dam olish xarakteri	
	sog'lomlashtirish muassasalarida	uyushmagan holda dam oluvchilar
kutubxona	15	15
kinoteatr	25	20
ma'ruzaxona	5	5
raqs maydonchasi	10	10
attraksionlar	15	10
sport maydonchasi	20	20

8-bob. Mikroiklimni yaxshilash tadbirlari

Hudud mikroiklimini yumshatishni u yoki bu darajada qo'shish mumkin bo'lgan mavjud usullardan (ratsional rejalashtirish, ko'kalamzorlashtirish, suv bilan ta'minlash) biz ularning ba'zilarini o'rganib chiqdik. Shu bilan birga, hududlarni muntazam ravishda baland tanali daraxtlarni ekish va ularni guruhli ekish orqali ko'kalamzorlashtirish eng oqilona bo'lib, ular tuproq, to'siqlar va to'shalgan yuza haroratini pasaytiradi, qulay konveksiya rejimini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, past tanali daraxtlar va butalarni juda zich ekish havo harakatchanligini deyarli uch baravar kamaytiradi, bu esa noqulay issiqlik hissiyotlarini keltirib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda purkagichli basseymlar va yomg'irlatish qurilmalari ham katta suv havzalari sifatida katta mikroiklimiy samara beradi.

Ushbu tavsiyalarni qo'llashning iqtisodiy samarasi shundan dalolat beradiki, bunda obodonlashtirilgan hududlarda bo'lgan odamlarning ahvoli yaxshilanadi, issiqlik bilan dam olish va termoregulyatsiya mexanizmlarini tiklash yanada to'liq amalga oshiriladi.